JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 4, Issue 4, May 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

ELEKTRON SHARTNOMA INSTITUTI: TUSHUNCHASI, HUQUQIY MOHIYATI VA FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Raxmonkulova Nilufar Hoji-Akbarovna
Ilmiy rahbar: "Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquq fanlari" kafedrasi professori, y.f.d., prof.
Daminov Ismoiljon Baxodirjon o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro biznes huquqi fakulteti Magistratura bosqichi talabasi
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: idaminov009@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:
Received:29.05.2026
Revised: 30.05.2026
Accepted:31.05.2026

KALIT SO'ZLAR:
elektron shartnoma, elektron hujjat, elektron raqamli imzo, elektron tijorat, fuqarolik-huquqiy bitim, shartnoma shakli, raqamli iqtisodiyot.

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada elektron shartnoma tushunchasi, uning huquqiy mohiyati hamda zamonaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimidagi o'rni kompleks tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida elektron shartnomaga berilgan normativ yondashuvlar o'rganilib, mavjud huquqiy bo'shliqlar va ta'riflarning cheklangan jihatlari tanqidiy baholanadi. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida elektron shartnomaning huquqiy tabiati, uning an'anaviy yozma shartnomalar bilan o'xshash va farqli jihatlari yoritib beriladi. Shuningdek, elektron hujjat va elektron raqamli imzoning shartnomaning yuridik kuchini ta'minlashdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada elektron shartnomani mustaqil huquqiy institut sifatida rivojlantirish zarurati asoslanib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan mualliflik ta'rifi ilgari suriladi.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar tobora ko‘proq elektron muhitga ko‘chib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish asosida tuziladigan bunday bitimlar huquqiy amaliyotda “elektron shartnomalar” deb ataladi. Elektron shaklda tuzilgan shartnoma an’anaviy yozma shakldagi shartnoma bilan funksional jihatdan teng huquqiy kuchga ega bo‘lishi, uning tuzilishi, haqiqiyligi, isbotlanishi va ijrosi masalalari milliy hamda xalqaro huquq normalarida alohida tartibga solingan. Ushbu institutning huquqiy mohiyatini aniqlash, avvalo, elektron axborot vositalari orqali tuzilgan bitimning huquqiy tabiatini, uning tuzilish mexanizmini, elektron oferta va akseptning mazmunini, shuningdek, elektron imzo va elektron hujjatga oid talablarning shartnoma kuchiga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilishni talab etadi. Shu bois elektron shartnoma tushunchasi va uning huquqiy mohiyatini o‘rganish zamonaviy fuqarolik muomalasida muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, avvalo elektron shartnoma tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligik tizimidan ta’rif izlaydigan bo‘lsak, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun hamda “Fuqarolik kodeksi” kabi normativ hujjatlarda elektron shartnomalarning huquqiy tabiati, tuzish tartibi va asoslari keltirib o‘tilgan bo‘lishiga qaramay, elektron shartnomaga rasmiy tarif berib o‘tilmaganini ko‘rishimiz mumkin.

Shunga qaramay, “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 02.06.2016 yildagi 185-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorining birinchi ilovasi bo‘lgan elektron tijoratni amalga oshirish qoidalarida elektron shartnoma tushunchasiga ta’rif keltirib o‘tilgan.

Unga ko‘ra **elektron shartnoma** – tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda sotuvchi va xaridor o‘rtasida tuziladigan shartnoma[150].

Bizning fikrimizcha ushbu ta’rif bir qator savollarni keltirib chiqarishi mumkin.

Birinchidan, ta’rif faqat tovarlar, ishlar va xizmatlar bilan bog‘langan bitimlarni qamrab oladi va elektron shartnoma instituti boshqa turdagi huquqiy bitimlar, masalan, moliyaviy shartnomalar, ijaraga berish, litsenziya bitimlari yoki aqilli shartnomalar kabi murakkab elektron bitimlarni o‘z ichiga olmaydi. Bu esa qonunchilikning elektron shartnomalar instituti doirasini sun’iy toraytiradi.

Ikkinchidan, ta’rif faqat axborot tizimlari orqali amalga oshiriladigan bitimlarni ko‘zda tutadi, lekin elektron imzo yoki boshqa autentifikatsiya vositalarining roli, shuningdek,

[150] Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son qaroriga 1-ilova. https://lex.uz/docs/-2973939?query=elektron%20shartnoma&exact=1#sr-1 16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son

elektron shartnomaning yuridik kuchini ta’minlash mexanizmlari alohida qayd etilmagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qonunchilikning ta’rifi texnik vositalarga qaratilgan, biroq elektron shartnomaning huquqiy mohiyatini, tomonlarning huquqiy majburiyatlari va bitimning huquqiy oqibatlarini yetarlicha aks ettirmaydi.

Xorijiy olimlar fikrlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak Brunel universiteti professori F. Wang elektron shartnomani axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida tuziladigan, taraflarning iroda bayonlari elektron signal, elektron xabar yoki raqamli shakldagi axborot almashinuvi orqali ifoda etiladigan shartnoma sifatida ta’riflaydi[151].

Unga ko‘ra, elektron shartnomani an’anaviy shartnomadan farqlovchi asosiy belgi – bitimning shakli emas, balki uni tuzish vositalari. ushbu ta’rif elektron shartnomaning texnik va tashqi shakliga katta urg‘u beradi, biroq uning huquqiy mohiyati tomonlarning majburiyatlari, elektron imzo orqali tasdiqlanishi va shartnomaning yuridik kuchi kabi masalalarni yetarlicha qamrab olmaydi. Shu sababli, elektron shartnoma tushunchasini faqat “tuzish vositalari” bilan cheklash, uning huquqiy tabiati va amaliy oqibatlarini to‘liq aks ettirmaydi.

Ayad Kheiraning ta’kidlashicha “Elektron shartnomalar” – bu tomonlarning irodasi real jismoniy uchrashuvdan emas, balki axborot-texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan, huquqiy bitimlardir[152]. Ushbu ta’rif elektron shartnoma tushunchasini texnik vositalarga haddan tashqari cheklangan nuqtai nazardan ko‘rsatishi mumkin.

Aslida, elektron shartnoma faqatgina elektron platforma orqali tuzilgan bitim emas, balki uning **huquqiy kuchi, tomonlarning majburiyatlari va elektron imzo bilan tasdiqlanishi** kabi jihatlarni ham qamrab olishi lozim. Shu sababli, faqat “axborot texnologiyalari orqali amalga oshiriladi” deb belgilash bizningcha elektron shartnomaning huquqiy mohiyati va uning an’anaviy shartnomaga tengligi nuqtai nazarini yetarlicha aks ettirmaydi.

Ketrin Stokton esa elektron shartnomaga quyidagicha ta’rif beradi. Elektron shartnoma elektron shaklda tuzilgan va imzolangan qonuniy kuchga ega bo'lgan shartnoma bo'lib, an‘anaviy qog‘oz shartnomalar kabi bajarilishini ta’minlaydi. Bu muzokaralar, imzolash va ijro etish uchun elektron pochta yoki onlayn shakllar kabi elektron aloqa usullarini o‘z ichiga oladi[153].

---

[151] Wang FF, Law of Electronic Commercial Transactions: Contemporary Issues in the EU, US and China (2nd edn, Routledge 2014).

[152] Kheira A, ‘The Legal System of Electronic Contracts’ (2023) 11 Russian Law Journal 6. https://www.russianlawjournal.org/index.php/journal/article/view

[153] Stockton K, Understanding Electronic Contracts (E-Contracts) (Pocketlaw, 24 June 2024) https://pocketlaw.com/content-hub/electronic-contracts

Yuqorida keltirilgan elektron shartnoma ta’rifini juda asosli deyishimiz mumkin, chunki u an’anaviy shartnomalar kabi qonuniy kuchga ega ekanligini ta’kidlaydi va bu elektron hujjatlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, tanqidiy nuqtai nazardan, uning ta’kidi texnologik xavfsizlik va raqamli imzo masalalarini yetarlicha hisobga olmaydi; elektron shartnomalar samarali va ishonchli bo‘lishi uchun, ularning huquqiy kuchi bilan bir qatorda, autentifikatsiya va ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlari ham muhim rol o‘ynaydi.

A.A.Yaroshenko ham bir qator mutahassislarning elektron shartnoma nazariyasi yuzasidan bildirilgan fikrlari natijasida quyidagicha, elektron shartnomaning ta’rifini ishlab chiqqanini ko‘rishimiz mumkin. Elektron shartnoma – bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasida fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuvdir[154]. Mazkur ta’rif elektron shartnomaning fuqarolik-huquqiy mohiyatini to‘g‘ri ochib beradi deb hisoblaymiz, chunki u shartnomaning asosiy funksiyasi – huquq va majburiyatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilishni – an’anaviy shartnoma bilan teng darajada e’tirof etadi.

Elektron shartnoma tushunchasining aniqlanishi ushbu ijtimoiy munosabatning tashqi belgilari va umumiy mazmunini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, faqatgina ta’rif berish bilan cheklanib qolish elektron shartnomaning fuqarolik huquqi tizimidagi o‘rnini to‘liq anglash imkonini bermaydi. Shu sababli, elektron shartnomaning mohiyatini yanada chuqurroq ochib berish, uning huquqiy tabiatini aniqlash va u qaysi huquqiy institut doirasida shakllanishini asoslash zarurati yuzaga keladi. Elektron shaklda tuziladigan shartnomalar zamonaviy raqamli muomalada keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ular huquqiy mohiyatiga ko‘ra an’anaviy shartnomalardan farq qiladimi yoki faqat tuzilish usuli bilan ajralib turadimi, degan masala huquqshunos olimlar o‘rtasida ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Aynan shu jihat elektron shartnomani mustaqil huquqiy institut sifatida e’tirof etish yoki uni shartnoma tuzishning alohida shakli sifatida baholash masalasini o‘rtaga qo‘yadi.

Avvalo elektron shartnomaning yuridik kuchiga to‘xtaladigan bo‘lsak “UN Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts”ning 8-moddasida aloqa yoki shartnoma faqat elektron aloqa shaklida bo‘lganligi sababli uning haqiqiyligi yoki ijro etilishi rad etilmasligi kerakligi belgilab o‘tilgan bo‘lib. Ushbu norma xalqaro shartnomaviy munosabatlardan elektron shartnomaning huquqiy kuchini etirof etib, aloqa yoki shartnoma

[154] A A Yaroshenko, ‘О природе электронного договора’ (2021) Вестник (PDF) https://rep.vsu.by/bitstream/123456789/29403/1/395-397.pdf

faqatgina uning elektron shaklda bo‘lgani uchungina yuridik kuchga ega emas deb hisoblanmasligi lozimligini belgilab bergan.

Elektron shartnomalarning huquqiy tabiatini aniqlashda bitim tushunchasiga to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bildik. Bitim bu huquqiy oqibat tug‘dirishga qaratilgan irodaviy harakat bo‘lib, u bir tomonlama, ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama bo‘lishi mumkin. Shartnoma esa har doim kamida ikki tomonning kelishuviga asoslangan bitim sifatida vujudga keladi. Shu munosabat bilan, har bir shartnoma – bitim, lekin har bir bitim shartnoma emas, degan ilmiy qoida biz uchun elektron shartnomaning huquqiy mohiyatini aniqlashda poydevor vazifasini bajaradi.

Sherstobitov.A.E “Axborot sohasidagi shartnomaviy munosabatlar, ya’ni axborot yaratish, uzatish va olish to‘liq fuqarolik-huquqiy shartnomalar orqali tartibga soluvchi umumiy qoidalarga bo‘ysunadi[155]”, deya fikr bildirgan.

Yuqoridagi fikrga binoan bitim fuqarolik-huquqiy instituti bo‘lib, ikki yoki undan ortiq tomonlarning xohish irodasini ifodalagan va ularning huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan kelishuv hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 101-moddasida bitimlar fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari sifatida ta’riflanib, fuqarolik kodeksining 102-moddasiga ko‘ra bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko‘p taraflama (shartnomalar) bo‘lishi mumkin. Fuqarolik kodeksining 105-moddasida bitimlarning yozma va og‘zaki shakillari mavjudligi ko‘rsatilgan. Biroq ushbu moddada bitimning elektron shakli to‘g‘risida qoida belgilanmagan. Fuqarolik kodeksining 107-moddasida esa xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasining mazmunini ifodalaydigan boshqa hujjatlarni o‘zaro ayirboshlash, agar qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi[156].

Fuqarolik kodeksi 366-moddasida esa shartnomaning shakli keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkinligi belgilangan.

[155] Шерстобитов А.Е. Правовое регулирование договорных отношений в сфере информатики. Право и информатика. -М. 1990,-143 С
[156] O‘zbekiston Resublikasi fuqarolik kodeksi. 01.03.1997. 24.06.2025-y., 03/25/1070/0536-son. https://lex.uz/docs/-111189

A.Belousovning ushbu masalada to‘xtalib, agar milliy qonunchilikda shartnomaning maxsus “elektron shakli” to‘g‘risidagi qoidalar mavjud bo‘lmasa, bunday bitimning yuridik e’tirof etishning eng samarali usuli uni amalda mavjud bo‘lgan u yoki bu shartnoma shakli bilan tenglashtirish hisoblanishini keltirib o‘tgan[157].

Elektron shartnomalarning huquqiy kuchini tahlil etishda davom etsak, elektron tijoratda shartnoma, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, faqat elektron hujjatlardan foydalanilgan holda tuzilganligiga asoslanib haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas[158].

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, elektron shartnomalarning muhim jihatlaridan biri bu elektron hujjatning mavjudligi bo‘lib, shuning uchun ham elektron shartnoma – elektron tijoratda foydalaniladigan elektron hujjatning bir ko‘rinishi yoki bir turi bo‘lib xisoblandi. Shuning uchun o‘zi elektron hujjat nimaligini va uning huquqiy tabiatini ham aniqlab olishimiz lozim bo‘ladi.

Ushbu sohani tartibga solish O‘zbekiston Respublikasida “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunning 5-moddasiga ko‘ra elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot elektron hujjatdir[159]. Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda aaxborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi. Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

Aytilganidek elektron hujjat elektron hujjat aylanishida foydalaniladi, o‘z navbatida elktron hujjat aylanishi bu – elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo‘natish va qabul qilib olish jarayonlari yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish, hisob-kitoblarni. Rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanish mumkin.

Elektron shartnomalarning yana bir jihati imzo hisoblanadi. Elektron bitim va boshqa har qanday elektron hujjat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi, o‘z navbatida elektron raqamli imzo elektron hujjatning majburiy rekvizitlaridan eng asosiysidir. O‘zbekiston

[157] Белоусов А. Электронный документооборот. Юридические аспекты ИТ – бизнеса // Crime-research. org.
[158] Rustambekov I.R. Problems of Legal Regulation of Civil-Legal Relations in the Internet. Monograpph. – T.: TSUL, 2017. – 310 p.
[159] “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi 611-II-son. 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son. https://lex.uz/ru/docs/-165079

Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, elektron raqamli imzo bu elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo deya tariflangan[160].

Elektron shartnomani haqiqiyligini tasdiqlash elektron raqamli imoz orqali amalga oshirilib, bunda elektron raqamli imzoni tan olish haqiqiyligini tasdiqlash muhim ahamiyatga egadir. Milliy qonunchiligimizga asosan elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash – elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishliligi va elektron hujjatdagi axborot xatolik yo`qligi tekshirilgandagi ijobiy natija bo‘lib hisoblanadi.

Elektron imzoning huquqiy kuchga egaligi elektron shartnomalarni an’anaviy yozma shakldagi shartnomalar bilan tenglashtirish imkonini beradi, bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida barqarorlik va ishonchlilikni mustahkamlaydi. Natijada, elektron hujjat va elektron imzoga asoslangan elektron shartnomalar raqamli iqtisodiyot sharoitida fuqarolik muomalasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ko‘rganimizdek elektron shartnomalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarif faqatgina Vazirlar mahkamasi 185-qaroriga ilova qilingan 1-ilovadagina aks etgan. Biroq kundan kunga o‘sib borayotgan ijtimoiy munosabat sifatida qonunosti hujjatlarida emas, balki Fuqarolik kodeksi yoki “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunda quyidagicha aniq ta’rif bilan belgilash zarur deb hisoblaymiz.

Elektron shartnoma – bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasida huquq va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan va elektron axborot vositalari orqali tuziladigan bitim. Yuqorida bir qator mutahassislarning fikrlari va hulosalari asosida shakillantirilgan ushbu tarif elektron shartnoma institutining yuridik kuchini mustahkamlash va amaliy ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash lozimki, elektron shartnomalar raqamli muhitda tomonlarning iroda bayonlari asosida tuziladigan, an’anaviy yozma shartnomalarga teng yuridik kuchga ega bitimlar sifatida shakllanib, ularning huquqiy mohiyati zamonaviy fuqarolik-huquqiy tizimda yangi tartibga solish mexanizmlarini talab qiladi.

[160] “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.10.2022 yildagi O‘RQ-793-son. 13.10.2022-y., 03/22/793/0918-son. https://lex.uz/docs/-6234904

Foydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 01.03.1997-y. (28.03.2026-y., 03/26/1126/0279-son o‘zgartirishlar bilan). https://lex.uz/docs/-111189
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”. 29.04.2004-yildagi 611-II-son (21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son o‘zgartirishlar bilan). https://lex.uz/docs/-165079
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”. 12.10.2022-yildagi O‘RQ-793-son. https://lex.uz/docs/-6234904
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son qarori 1-ilovasi — “Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari”. (16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son o‘zgartirishlar bilan). https://lex.uz/docs/-2973939

Ilmiy va boshqa adabiyotlar

5. Yaroshenko A. A., О природе электронного договора, Vestnik, 2021, pp. 395–397. https://rep.vsu.by/bitstream/123456789/29403/1/395-397.pdf
6. Zokirov I. B., Fuqarolik huquqi. 1 qism, mas’ul muharrir H. Rahmonqulov, qayta ishlangan va to‘ldirilgan 5-nashr, Tashkent: TDYU nashriyoti, 2009, 611 b.
7. Kheira A., The Legal System of Electronic Contracts, 11 Russian Law Journal, 2023, p. 6. https://www.russianlawjournal.org/index.php/journal/article/view
8. Rustambekov I. R., Problems of Legal Regulation of Civil-Legal Relations in the Internet, monograph, Tashkent: TSUL, 2017, 310 p.
9. Stockton K., Understanding Electronic Contracts (E Contracts), Pocketlaw, 24 June 2024. https://pocketlaw.com/content%20hub/electronic-contracts
10. Wang F. F., Law of Electronic Commercial Transactions: Contemporary Issues in the EU, US and China, 2nd edn, Routledge, 2014.
11. Belousov A., Elektronnyy dokumentooborot. Yuridicheskie aspekty IT-biznesa, Crime-research.org.
12. Sherstobitov A. E., Pravovoe regulirovanie dogovornykh otnosheniy v sfere informatiki, in Pravo i informatika, Moscow, 1990, p. 143.